

#maktablarimiz\_haqida  
#Erkin\_Vohidav\_nomidagi\_ijod\_maktabi



**BU DARGOHDA ISHLASH SHARAF, MUNOSIBLIK—  
MAS'ULIYAT**

Marg'ilon shahridagi muazzam Erkin Vohidov bog'i va haykalining ochilishida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, "Maqsadim, o'quvchilarini adabiyotga qaytarish orqali, ma'naviyatga qaytarsak. Qaniydi, shu maktablardan bitta Erkin Vohidov, Bitta Abdulla Oripov yetishib chiqsa, men o'zimni baxtli hisoblayman", degandilar. Bu so'zlardan bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan ijod maktablari missiyasini chuqur anglash mumkin.

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabimiz ham ushbu sharaflı vazifaga sidqidildan yondoshmoqda. Ta'lrim maskanimiz ma'naviyat akademiyasiga, o'quvchilarimiz esa ilm va ijodning yosh kashfiyotchilarga aylangan.

Ijod maktabimizda yoshlarimizning ijodiy salohiyatlarini o'stirish uchun adabiy muhit yaratilib, ustozlarning mahorat darslari tizimli yo'lga qo'yilgan. O'quvchining ijodiy laboratoriyasini tahlil etish uchun har chorakda ijodiy monitoring olib borilmoqda.

Biz o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularni fikrlashga o'rgatamiz, tafakkur qilish orqali katta hayotga tayyorlaymiz. Bilimlarni o'zlashtirish darajasini tadqiq va tahlil qilish uchun chorak yakunida ilmiy monitoringlar tizimli o'tkaziladi.

O'quvchilarimiz ta'lrim maskanida shunchaki o'qimaydilar, balki maktab hayotida yashaydilar. Ilmiy va ijodiy monitoringlardan olgan natijalari va yil yakuniga ko'ra quyi o'rinda bo'lgan o'quvchilar o'z matabiga qaytariladi. Mazkur tizim o'quvchining matabda o'qib qolishi uchun o'z ustida ishlashga, vaqtini to'g'ri taqsimlashga, mehnat qilishga undaydi.

Maktabimizda shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etish uchun “O‘zbegin” platformasi yaratilgan. Platforma doirasida “O‘zbegin” radiosи, “O‘zbegin” jurnali va Farg‘она viloyati teleradiokanalni bilan hamkorlikda “O‘zbegin” ko‘rsatuvi hamda “O‘zbegin” ijodiy loyihasi yo‘lga qo‘yilgan. Quvonarlisi, mazkur loyihalarning ijodiy va texnik muharrirlari o‘quvchilarimizning o‘zlaridir.

Badiiy tafakkur va san’at uyg‘unligida yangi asarlar yaratish maqsadida “Tarannum” musiqiy ansambli va “O‘zbegin” drama to‘garagi ham tashkil etilgan.

Amaliy san’at va kasb-hunarga yo‘naltirish maqsadida “O‘zbegin” kulolchilik to‘garagi tashkil etilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar oddiy loydan go‘zal san’at asarlari yaratadilar.

Ijod maktabida bugungi kunda 35 nafar malakali fidoyi o‘qituvchi va murabbibi 198 nafar o‘quvchiga ta’lim-tarbiya bermoqda. Yutuqlarimiz xirmoni ham ko‘zga ko‘rinib qoldi.

Bilimni baholash agentligining 2023-yil bitiruvchilarining o‘z fanlaridan to‘plagan ballari sarhisobi bo‘yicha Erkin Vohidov ijod maktabi bitiruvchilari o‘rtacha 159.7 ball bilan respublikada 2-o‘rinni egalladi.

O‘quvchilarimiz fan olimpiadalarida faol ishtirok etib, viloyat va respublikada faxrli o‘rnlarni egallab kelmoqda. Shahnoza Anvarjonova ona tili va adabiyoti fanidan 2022-yilda asosiy fan olimpiadasining respublika bosqichi g‘olibi bo‘ldi.

2022-yilda Shahnoza Anvarjonova, 2023 yilda Durdona Inomjonova o‘z fanlaridan maksimal ball to‘plib, Prezident granti asosida oliy ta’lim muassasasi talabasi bo‘lishgan.

O‘tgan 2023-o‘quv yili yakuniga ko‘ra, 78 nafar o‘quvchi ingliz, arab, ona tili va adabiyoti fanlaridan xalqaro va milliy sertifikatlarga ega bo‘ldi.

2023-yilda Nilufar Ergasheva Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Sanjar Ikromov, Gulzoda O‘rinboeva, Muattar Mamatkarimova kabi o‘quvchilarimiz an‘anaviy Zomin seminarida ishtirok etib, “Birinchi kitobim” loyihasi nomzodi bo‘ldi.

“Madaniyat va ma’rifat” teleradiokanalining “Qaqnus” ko‘rsatuvida o‘quvchilarimiz ishtirok etib, ijod namunalari e’tirof etildi.

O‘quvchilarning nazm, nasr, mumtoz adabiyot, badiiy tarjima, bolalar adabiyoti bo‘yicha ijod namunalari 2021 yilda “Farg‘ona” nashriyotida “Qo’shqanot qasidasi”, 2022 yilda “Akademnashr” nashriyotida “Tong jilvasi”, 2023 yilda “Ijod Bo‘stoni” nomlari ostida nashr etildi. “Yangi to‘lqin” nomi ostida 13 nafar o‘quvchining bayozlari chop etildi.

2023 yilda Davlat dasturi doirasida qo‘srimcha 100 o‘rinli o‘quv bino, 100 o‘rinli yotoqxona, oshxona, kutubxona va sport zali qurilib, foydalanishga topshirildi. Jahon va o‘zbek adabiyotining nodir durdonalari, zamonaviy laboratoriya va robototexnika jihozlari bilan ta’mindlandi. O‘quv xonalari zamonaviy kompyuterlar va panel ekranlar bilan jihozlandi.

Bugun maktabimizda Erkin Vohidovdek millatparvar, o‘z so‘zini baralla aytadigan yangi avlod kamolga yetmoqda. Men ishonch bilan shuni aytamanki, bir avlod takomilida uyg‘onish – Uchinchi renessans yana Sharq markazi O‘zbekistonga qaytadi. Bugun millat ta’limi tarixida yangi davr boshlandi. Men shu sharaflı tarixiy jarayon ishtirokchisi ekanligimdan baxtiyorman.

**Nigora Mannopova,  
Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi direktori**